



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIYA, BUXGALTERIYA HISOBI VA BANK ISHI MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING FINANCE, ACCOUNTING AND BANKING RELATIONS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF THE ECONOMY

¹**Axmedova Nodira
Abdurashid qizi**

¹*Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-bosqich talabasi.*

E-mail: nodira11022020@gmail.com

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Zamonaviy iqtisodiyotda raqamlashtirish jarayoni moliya, buxgalteriya hisobi va bank ishi munosabatlariga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida moliya sohasining rivojlanishi, buxgalteriya hisobi tizimining takomillashuvi va bank ishlarining samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish natijasida kelib chiqadigan imkoniyatlar va muammolar ko'rib chiqilib, ularni hal qilishga qaratilgan tavsiyalar beriladi.

Eng. - In the modern economy, the process of digitalization requires new approaches to finance, accounting, and banking operations. This article analyzes the development of the financial sector under digitalization conditions, the improvement of the accounting system, and ways to enhance the efficiency of banking activities. The opportunities and challenges arising from digitalization are examined, and recommendations for addressing them are provided.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *raqamlashtirish, moliya, buxgalteriya hisobi, bank ishi, texnologik innovatsiyalar, elektron tizimlar, iqtisodiyot, axborot tizimlari.*

❖ *digitalization, finance, accounting, banking, technological innovations, electronic systems, economy, information systems.*

Kirish.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichi — raqamli iqtisodiyot shakllanmoqda. Raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish, savdo, moliya va xizmat ko'rsatish sohalariga joriy etilishi natijasida, iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu global tendensiyadan O'zbekiston ham chetda qolmay, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat mehnat unumdorligini oshirish, balki davlat boshqaruvidagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq tushumlarini ko'paytirish va

yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot yoshlar bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, xizmatlar eksporti hajmini oshirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish imkonini bermoqda.

Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida[1]gi PF-6079-son Farmoni, hamda 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son Qarori [2] asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu hujjatlar mamlakatimizda raqamli transformatsiyani jadallashtirish, davlat

boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi kabi asosiy sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni nazarda tutadi.

Jumladan, "Elektron hukumat" tizimini yanada takomillashtirish, mahalliy dasturiy mahsulotlar va IT bozorini rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklar tashkil etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportal ishga tushirilgan, shuningdek, "Digital Tashkent" dasturi doirasida jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarish axborot tizimi yaratilmoqda. Bu tajriba kelgusida mamlakatning boshqa hududlariga ham joriy etilishi rejalashtirilgan.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, O'zbekistonning zamonaviy, barqaror va inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kanadalik olim Don Tapskottning fikricha, "raqamli iqtisodiyot bu shunchaki texnologik o'zgarish emas, balki bilim, tarmoqlar va innovatsiyalar ishlab chiqarishning asosiy omillariga aylangan iqtisodiy tizimning tub o'zgarishidir" [3].

Amerikalik professor Erik Brynjolfssonning fikricha, raqamli texnologiyalar inson aql-zakovatini ko'paytiruvchi kuchga aylanadi. Uning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyotdagi yutuqlar, ayniqsa, mehnat bozori, unumdorlik va daromadlar tengsizligiga katta ta'sir ko'rsatadi [4].

Amerikalik iqtisodchilar Karl Shapiro va Xel Varian o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida axborot mahsulotlari iqtisodiyoti an'anaviy tovarlar iqtisodidan farq qilishini ta'kidladilar. Shuningdek, ular raqamli iqtisodiyotda ko'p

hollarda birinchi g'olib g'olib bo'lishini, chunki tarmoq effekti kuchli rol o'ynashini ta'kidladilar [5].

Nemis professori Klaus Shvab o'zining ilmiy maqolalarida raqamli iqtisodiyot to'rtinchi sanoat inqilobining markaziy elementi bo'lib, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, internet va avtomatlashtirish orqali sanoat, jamiyat va mehnat munosabatlarini tubdan o'zgartirishini ta'kidladi [6].

O'zbek olimi O.S. Abdusalomovning tadqiqotida ta'kidlanishicha, raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalariga asoslangan yangi iqtisodiy model bo'lib, ishlab chiqarish, tarqatish, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [7].

Iqtisodchi Y.M. Murodovning ilmiy tadqiqotida qayd etilishicha, "Raqamli texnologiyalar orqali biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish kichik va o'rta biznesning raqobatbardoshligini oshiradi va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytiradi [8].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliya sohasidagi raqamlashtirish avvalo to'lov tizimlarini, investitsiya jarayonlarini va moliyaviy hisobotlarni amalga oshirishda o'zgarishlarga olib keladi. Elektron pul o'tkazmalari, blockchain texnologiyasi va sun'iy intellekt moliya operatsiyalarini tezlashtiradi va aniqligini oshiradi. Masalan, PayPal, Wise va boshqa xalqaro to'lov tizimlari butun dunyo bo'yicha mijozlarga tezkor va arzon xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Lekin, moliya sohasida raqamlashtirishning salbiy jihatlarini ham e'tiborga olish kerak. Masalan, moliyaviy ishonchsizlikka olib keladigan shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy foydalanilishi

haqidagi jarayonlar ko'paymoqda. Shuning uchun moliya institutlari raqamlashtirishni amalga oshirishda xavfsizlik tizimlarini mustahkam va samarali qilishga e'tibor qaratishlari zarur.

Buxgalteriya hisobi sohasida raqamlashtirish hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va elektron hujjatlarni qo'llash orqali sifat va samaradorlikni oshiradi. Zamonaviy ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari yordamida korxonalar hisob-kitoblarni tez va aniq bajarish, malakaviy axborotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, raqamlashtirish yordamida soliq hisobi avtomatlashtiriladi va davlat organlari bilan aloqalar soddalashadi. Masalan, O'zbekistonda soliq tizimi yordamida korxonalar elektron tarzda hisobot taqdim etishlari mumkin. Lekin, buxgalteriya sohasida raqamlashtirishning to'siqlari ham mavjud bo'lib, buxgalterlar yangi dasturlarni o'rganishga majbur bo'lishadi va ba'zi hollarda texnik muammolar hisob-kitoblarning kechikishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bank sohasida raqamlashtirish eng sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Banklar mobil ilovalar orqali mijozlarga tezkor

xizmat ko'rsatish imkonini beradi. Internet-banking va mobil-banking tizimlari mijozlar uchun hisob-kitoblarni boshqarishni juda osonlashtiradi.

Shuningdek, raqamlashtirish banklarning operatsion xarajatlarini kamaytiradi va ularni raqobatbardosh qiladi. Masalan, HSBC va Citibank kabi xalqaro banklar sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanib, risklarni oldini olish va mijozga mos xizmat ko'rsatish strategiyalarini ishlab chiqishadi.

Lekin bank ishlarida raqamlashtirishning salbiy tomonlari ham bor. Kiber xavfsizlik muammolari, elektron tizimlardagi xatoliklar va mijozlarning yangi texnologiyalarga ishonchsizligi banklarga qo'shimcha bosim keltirishi mumkin.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotni raqamlashtirishni global tendensiyaga aylantirdi. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliya tizimini optimallashtirish, davlat boshqaruvi faoliyatining shaffofligini ta'minlash bilan tavsiflanadi. Jadvalda raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ta'siri O'zbekiston misolida tahlil qilingan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari

Asosiy yo'nalish	Raqamli iqtisodiyotning global ta'siri	O'zbekistondan amalga oshirilayotgan islohotlar
Mehnat unumdorligi	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikning ortishi	AKT texnologiyalarini joriy etish orqali davlat xizmatlari avtomatlashtirilmoqda
Byurokratiyaning qisqarishi	Raqamli tizimlar orqali ortiqcha hujjat aylanishi kamaymoqda	"Elektron hukumat" tizimi orqali xizmatlar raqamlashtirilmoqda
Soliq tushumlari oshishi	Yashirin iqtisodiyot qisqarishi natijasida davlat budjetiga tushum ortmoqda	Soliq tizimiga raqamli nazorat mexanizmlari joriy qilindi
Yoshlar bandligi	IT sektorida yangi ish o'rinlarining yaratilishi	IT-parklar tashkil etilib, startaplar rivojlantirilmoqda
Xizmatlar eksporti	Raqamli mahsulot va xizmatlar global bozorlarga chiqmoqda	Dasturiy mahsulotlar eksporti o'smoqda, jumladan BPO (Business Process Outsourcing) markazlari ochilmoqda

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoda mehnat unumdorligini oshirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq tushumlarini ko'paytirish, yoshlar bandligini ta'minlash hamda xizmatlar eksportini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekistonda esa ushbu jarayon davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, soliq sohasiga raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish, IT-parklar orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va dasturiy mahsulotlar eksportini yo'lga qo'yish kabi aniq tashabbuslar orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida moliya, buxgalteriya hisobi va bank ishi munosabatlarini takomillashtirish muhim vazifadir. Raqamlashtirish bu sohalarga yangicha imkoniyatlar ochsa-da, bir qator muammolar ham tug'diradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun kadrlarni qayta

tayyorlash, xavfsizlik tizimlarini mustahkamlash va qonuniy bazani yangilash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Natijada, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni moliya, buxgalteriya hisobi va bank ishlarining sifatini oshirish va ulardagi samaradorlikni maksimal darajada oshirishga olib keladi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib, moliya, buxgalteriya hisobi va bank ishi munosabatlarini raqamlashtirish sharoitida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin:

- xodimlarni zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni egallashga o'rgatish kerak;
- raqamlashtirish jarayonida ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun maxsus tadbirlar ko'rilishi lozim;
- raqamlashtirish bilan bog'liq qonunlar va me'yoriy hujjatlarni yangilash va modernizatsiya qilish zarur;
- korxonalar va banklar uchun umumiy axborot tizimlarini yaratish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori.
3. Tapscott D. *The Digital Economy Anniversary Edition: Rethinking Promise and Peril In the Age of Networked Intelligence*, McGraw-Hill. – 2014.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. *The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies*. – WW Norton & company, 2014.
5. Shapiro C., Varian H. R. *Information rules: A strategic guide to the network economy*. – Harvard Business Press, 1999.
6. Schwab K. et al. *The future of jobs: Employment, skills and workforce strategy for the fourth industrial revolution* //World Economic Forum. – 2016. – C. 1-32.
7. Abdusalomov O.S. (2021). Priority areas for ensuring economic growth in the digital economy. *Journal of Economics and Innovative Technologies*, 1(4), 65-70.
8. Murodov Y.M. (2020). Current issues of digitalization of business processes in the digital economy. *TSUI Scientific Bulletin*, No. 4, 75-81.